

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida  
UDK: 005.591.6:378:006(575.1).

**YULDASHEV ISKANDAR BAXRAMOVICH**

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNI  
TASHKIL ETISH**

08.00.13 – Menejment

Iqtisod fanlari falsafa doktori (PhD)  
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

**D I S S E R T A T S I Y A**

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari  
doktori, professor N.X. Jumayev**

Toshkent-2024

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. OLIY TA'LIM MUASSASALARINI XALQARO TASNIF BO'YICHA RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM MENEJMENTINING NAZARIY ASOSLARI .....</b>	<b>9</b>
<b>1.1. Oliy ta'lismuassasalarining xalqaro tasnifining o'ziga xos xususiyatlari .....</b>	<b>9</b>
<b>1.2. Innovatsion ta'lismenejmenti – oliy ta'lismuassasalarini xalqaro tasnifining omili sifatida .....</b>	<b>20</b>
<b>1.3. O'zbekistonda oliy ta'lismuassasalarida xalqaro tasnif maqomining rivojlanish tendensiyalari .....</b>	<b>31</b>
<b>Birinchi bob bo'yicha xulosa .....</b>	<b>44</b>
<b>II BOB. O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XALQARO TASNIF TENDENSIYALARI RIVOJLANISHIDA TA'LIM MENEJMENTINI BAHOLASH .....</b>	<b>47</b>
<b>2.1. O'zbekistonda oliy ta'limbazorining rivojlanish tendensiyalari va unda sifat menejmentining roli .....</b>	<b>47</b>
<b>2.2. O'zbekiston oliy ta'lismuassasalarida ta'lismifatini talabalar yondashuviasosida baholash .....</b>	<b>56</b>
<b>2.3. Oliy ta'lismuassasalarida ta'lismifatini ta'minlashda professor-o'qituvchilarning ta'sirini baholash .....</b>	<b>72</b>
<b>Ikkinchi bob bo'yicha xulosa .....</b>	<b>87</b>
<b>III BOB. OLIY TA'LIM MUASSASALARINI XALQARO TASNIF BO'YICHA RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI .....</b>	<b>90</b>
<b>3.1. Oliy ta'lismuassasalarini xalqaro tasnifining vujudga kelishi ilg'or tajribalari .....</b>	<b>90</b>
<b>3.2. Oliy ta'lismuassasalarini xalqaro tasnif bo'yicha rivojlantirishda innovatsion ta'lismenejmenti rolini mustahkamlash yo'llari .....</b>	<b>101</b>
<b>Uchinchi bob bo'yicha xulosa .....</b>	<b>111</b>
<b>XULOSA .....</b>	<b>114</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>116</b>

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati.** Global oliy ta’lim bozori 2023-yil holatiga 736,8 mldr. AQSh dollari miqdoriga baholanayotganligini kuzatish mumkin. Bu esa, 2024-2030-yillarda yiliga o‘rtacha 12,1 foizlik o‘sishni ko‘rsatib berishini qayd etish lozim<sup>1</sup>. Shundan, davlat universitetlarining ulushi 41 foizni tashkil etsa, xususiy universitetlar ulushi 59 foizni tashkil etadi. Oliy ta’lim muassasalarining xalqaro tasnifiga doir xalqaro tajribada ko‘plab yondashuvlarni kuzatish mumkin. Hozirgi kunda oliy ta’lim bozorining global fonida xalqaro darajada tan olinish jadal kurash maydonini vujudga keltirmoqda. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilga qadar Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida hamma hukumatlar tomonidan oliy ta’lim bilan qamrab olish masalasida jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. BMTning ma’lumotlariga ko‘ra, 15-24 yosh bo‘lgan aholi soni 2024-yilda 1,2 mldr. nafar bo‘lsa, ushbu raqam 2030-yilga borib 1,3 mldr. nafar bo‘lishi prognoz qilinmoqda<sup>2</sup>. Shu boisdan, global oliy ta’lim bozoridagi tendensiyalarini inobatga olgan holda universitetlarni rivojlantirishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

So‘nggi yillarda ko‘plab davlatlarda ta’lim siyosatining liberallashuvi, insonlarning ta’lim olishga bo‘lgan huquqlarini ta’minlashga qaratilgan islohotlar o‘laroq oliy ta’lim bilan qamrab olishga qaratilgan o‘zgarishlar rivojlanmoqda. Global miqyosda oliy ta’lim bozoridagi raqobat muhitining keskinlashuvi universitetlar o‘rtasida abituriyentlarni jalg etish bo‘yicha kurashning kuchayishiga olib kelmoqda. Oliy ta’lim muassasalari xalqaro tasnifining vujudga kelishida innovatsion ta’lim menejmentining roli, ta’lim sifatini talabalar yondashuvi asosida baholash, ta’lim sifatini ta’minlashda professor-o‘qituvchilarning ta’sirini aniqlash singari jihatlar muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta’lim tizimida xalqaro tan olinish darajasining yuqori bo‘lishiga olib keluvchi tadqiqotlarni olib borish zaruratga aylandi.

O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarining xalqaro tasnifi yuzasidan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta’lim muassasasining xalqaro standart mezonlari asosida tashkil etish va uni yanada rivojlantirish dolzarblik kasb etmoqda. O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarida xalqaro tasnif maqomining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, oliy ta’lim bozorining rivojlanish tendensiyalari va unda sifat menejmentining rolini tadqiq etish, universitetlarda ta’lim sifatini talabalar yondashuvi asosida baholash, oliy ta’lim muassasasini xalqaro tasnif bo‘yicha rivojlantirishda notijorat xususiyatini asosiy omilga aylantirish orqali innovatsion ta’lim menejmentini qo‘llash, oliy ta’lim muassasalarining reytingi va imiji kategoriyalarini ajratgan holda innovatsion ta’lim strategiyasini ishlab chiqish borasida ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat ega hisoblanadi.

Dissertatsiya ishi ma’lum darajada yuqorida qayd etilgan muammolar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarida

<sup>1</sup> Higher Education Market Size & Trends. <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/higher-education-market>

<sup>2</sup> State of the World’s Youth. <https://www.un.org/en/global-issues/youth>

belgilangan vazifalarni hal etishga xizmat qiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-sonli “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-sonli “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2024-yil 24-maydagi PF-81-sonli “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari va ushbu faoliyatga tegishli me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amaliyatga tatbiq qilishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Oliy ta’lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi o‘rni va uni rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari bir qator xorijlik va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Ingliz tilida olib borilgan tadqiqotlarda Aithal P. S., Aula H. M., Byun K., De los Rios-Carmenado I., Ferguson P., Grewal R., Han S., Holcombe A. N., Leckey J., Nelson A.R., Nguyen T. V. S., Schwerkendiek D., Wang Q.<sup>3</sup> tomonidan oliy ta’limda jahon tasnidagi universitetlarning tuzilishi, akademik va ilmiy faoliyatni tashkil etishning ustuvor jihatlari to‘g‘risida ilmiy xulosalarini keltirib o‘tganlar.

Z.Abdullayev, A.Alikariyeva, F.Babadjanov, M.Begalieva, Sh.Gafurova, U.Djumaniyazov, N.Zufarova, N.Yoldoshev, D.Nabiiev, D.Nishonov, N.Raxmonov, X.Saidova, G.Sadullayeva, M.Tashxodjayev, T.Teshabaev,

<sup>3</sup> Aithal, P. S., & Aithal, S. (2019). Building world-class universities: Some insights & predictions. *Building World-Class Universities: Some Insights & Predictions*. International Journal of Management, Technology, and Social Sciences (IJMTS), 4(2), 13-35.; Aula, H. M., & Tienari, J. (2011). Becoming “world-class”? Reputation-building in a university merger. *Critical perspectives on international business*, 7(1), 7-29.; Bracco, C. (2014). Friendship formation at Yale University: An evaluation of the residential college system.; Byun, K., Jon, J. E., & Kim, D. (2013). Quest for building world-class universities in South Korea: Outcomes and consequences. *Higher Education*, 65, 645-659.; De los Rios-Carmenado, I., Sastre-Merino, S., Lantada, A. D., Garcia-Martin, J., Nole, P., & Perez-Martinez, J. E. (2021). Building world class universities through innovative teaching governance. *Studies in Educational Evaluation*, 70, 101031.; Ferguson, P. (2011). Student perceptions of quality feedback in teacher education. *Assessment & evaluation in higher education*, 36(1), 51-62.; Grewal, R., Dearden, J. A., & Lilien, G. L. (2008). The university rankings game: Modeling the competition among universities for ranking. *The American Statistician*, 62(3), 232-237.; Han, S., & Jung, A. (2013). Analysis of Korean University reputation ranking based on key reputation rank factors of the US best research university. *Int J Educ Res*, 1(11), 1-12.; Holcombe, A. N., Cheatham, E. E., Gideonse, H. D., & Sabine, G. H. (1937). Academic Freedom and Tenure: Yale University. *Bulletin of the American Association of University Professors* (1915-1955), 23(5), 353-382.; Leckey, J., & Neill, N. (2001). Quantifying quality: the importance of student feedback. *Quality in Higher Education*, 7(1), 19-32.; Nelson, A.R. Ranking university innovation: a critical history. *Entrep Educ* 1, 1-10 (2018). <https://doi.org/10.1007/s41959-018-0002-y>; Nguyen, T. V. S., & Laws, K. (2019). Changes in higher education teachers’ perceptions of curriculum. *Journal of Applied Research in Higher Education*, 11(1), 76-89.; Schwerkendiek, D. (2015). Recent changes in World University Rankings: an explorative study of Korea and Germany. *Asia Europe Journal*, 13, 361-377.; Wang, Q., Cheng, Y., & Liu, N. C. (2012). Building world-class universities: Different approaches to a shared goal. In *Building World-Class Universities* (pp. 1-10). Brill.

A.Xamidova, M.Sharifxo'jayev, Yo.Abdullayev, E.Elmurodov singari olim va tadqiqotchilarimiz oliy ta'lism innovatsion ta'lism menejmentni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida yondashuvlarini bayon etishgan<sup>4</sup>.

Yuqoridagi tadqiqotlarda O'zbekiston sharoitida oliy ta'lism muassasalarining xalqaro tasnifini rivojlantirishda innovatsion ta'lism menejmentining istiqbollari bir tadqiqot obyekti sifatida o'rganilganligi kuzatilmaydi. Shu boisdan, mazkur tadqiqotni amalga oshirish dolzarblik kasb etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lism yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistonda oliy ta'lism muassasalarida innovatsion ta'lism menejmentini tashkil etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Oliy ta'lism muassasalarining xalqaro tasnifining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

Innovatsion ta'lism menejmenti – oliy ta'lism muassasalari xalqaro tasnifining omili sifatidagi rolini aniqlash;

O'zbekistonda oliy ta'lism muassasalarida xalqaro tasnif maqomining rivojlanish tendensiyalarini baholash;

O'zbekistonda oliy ta'lism bozorining rivojlanish tendensiyalari va unda sifat menejmentining rolini tadqiq etish.

---

<sup>4</sup> Абдуллаев З., Темиров А. Илмий инновацион фаолият самарадорлиги ва олий таълим муассасалар рейтинги. //Development issues of innovative economy in the agricultural sector. – 2021. – С. 499.; Аликариева А.Н. Олий таълим муассасаларида сифат менежменти тизимини моделлаштириш масалалари/ //Журнал социальных исследований, 2022. – Т. 5. – №. 2.; Бабаджанов Ф.К. Олий таълим муассасасининг рейтинги ва имижи муносабати. //Вестник КГУ им. Бердаха. №1. – 2019. – Т. 3. – С. 55.; Бегалиева М. А. Олий таълим: ўзгарувчан меҳнат бозори таалоблари асосида юқори малакали кадрлар тайёрлаш масалалари. //Conference on the role and importance of science in the modern world, 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 78-81.; Фафурова Ш. Олий таълим соҳасида сифат менежменти ва унинг хусусиятлари. // Iqtisodiyot va ta'lism, 2024. – Т. 25. – №. 1. – С. 274-281.; Джуманиязов У. Ўзбекистоннинг халқаро рейтинг ва индекслардаги ўрнини яхшилашда олий таълим тизимининг роли.

// Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 150-154.; Зуфарова Н.Г. Олий таълимда бренд капитали бошқарувини такомиллаштириш: и.ф.б.ф.д. ... автореферат. – Т.: ТДИУ, 2022. – 58 б.; Йўлдошев Н.К., Акбарходжаева З.З. Инновацион менежмент. – Т.: Йқтисодиёт, 2019. –321 б.; Набиев Д., Эркаева Г. Олий таълимда бошқарув фаолияти мустақилигининг долзарб масалалари. // Iqtisodiyot va ta'lism, 2021. – №. 6. – С. 193-199.; Нишонов Д.Ш. Олий таълим рақобатбардошлигини оширишнинг маркетинг стратегиялари: и.ф.б.ф.д. ... автореферат. – Т.: ТДИУ, 2022. – 60 б.; Раҳмонов Н.Р. Минтақавий ижтимоий-иктисодий ривожланиш асосида олий таълим тизимида кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш: и.ф.д. ... автореферат. – Т.: ЎзМУ, 2019. – 84 б.; Сайдова Х. Таълим тизими бошқарувида сифат ва самарадорлик моделлари. // Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/S. – С. 42-49.; Саъдуллаева Г.С. Олий таълим хизматлари бозорини ривожлантиришнинг маркетинг стратегияси: и.ф.б.ф.д. ... автореферат. – Т.: ТДИУ, 2020. – 68 б.; Ташходжаев М. Олий таълим муассасалари рейтинги ва унинг молиявий бошқарувга таъсири. // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 264-272.; Тешабаев Т.З. Олий таълим тизимида инновацион фаолиятни ахборот технологиялари асосида бошқаришни такомиллаштириш: и.ф.д. ... автореферат. – Т.: ТДИУ, 2019. – 83 б.; Хамидова А.А. Таълим хизматлари бозорини ривожлантиришнинг ташкилий-иктисодий механизмини такомиллаштириш (олий таълим муассасалари мисолида): и.ф.б.ф.д. ... автореферат. – С.: СамДУ, 2022. – 61 б.; Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи нашриёти., 2001. - 706 б.; Элмуродов Э. Ўзбекистонда олий таълим соҳасидаги академик эркинликни таъминлашнинг ўзига хос жиҳатлари. // Наука и технология в современном мире, 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 52-54.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini talabalar yondashuvi asosida baholash;

oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’minlashda professor-o‘qituvchilarning ta’sirini baholash;

oliy ta’lim muassasalari xalqaro tasnifining vujudga kelishi borasida ilg‘or tajribalarni tadqiq etish;

oliy ta’lim muassasalarini xalqaro tasnif bo‘yicha rivojlantirishda innovatsion ta’lim menejmenti rolini mustahkamlash yo‘llarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti sifatida** O‘zbekiston davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** O‘zbekiston davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalarida xalqaro tasnifni rivojlantirishda innovatsion ta’lim menejmenti jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy jarayonlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ekspert baholash, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik modellashtirish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, sosiologik so‘rov, statistik ma’lumotlarni guruhlash, multinomial va ordered regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

oliy ta’lim muassasasini xalqaro tasnif bo‘yicha rivojlantirishda notijorat xususiyatini asosiy omilga aylantirish orqali innovatsion ta’lim menejmentini qo‘llash taklifi asoslangan;

oliy ta’lim muassasalari talabalarining yosh va jins kesimida reyting ballarini tahlil qilish asosida talabalarning shaxsiy ta’lim traektoriyasini boshqarish samaradorligini oshirish taklifi ishlab chiqilgan;

oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari o‘quv mashg‘ulotlarida yangi texnologiyalardan foydalanishlari, loqayd talabaga tashqaridan ta’sir etishni rivojlantirish orqali ta’lim sifatini miqdoriy oshirish yuzasidan taklif asoslangan;

moliyaviy menejment samaradorligiga erishish maqsadida turdosh ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalarining mutaxassislik va tanlov fanlari bo‘yicha kesishgan holati bo‘yicha ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish orqali quyidan yuqoriga akademik mustaqillikni yanada mustahkamlash taklifi kiritilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oliy ta’lim muassasalarining reytingi va imiji kategoriyalarini ajratgan holda innovatsion ta’lim strategiyasini ishlab chiqishda foydalanish asoslangan;

ilmiy tadqiqot ishlarini o‘quv jarayonlaridan ajratish orqali universitetning ilmiy salohiyati va ilmiy nashrlari sonini oshirishga erishish aniqlangan;

ilmiy tadqiqot ishlarida nisbatan yosh bo‘lgan professor-o‘qituvchilarni ishga jalg‘ etish orqali oliy ta’lim muassasasida ilmiy nashrlar sonini oshirish asosida xalqaro tasnifni mustahkamlash taklif etilgan;

oliy ta’lim muassasalarida hamkor universitetlar bilan ikki tomonlama akademik tan olinishni joriy etish orqali ikki tomonlama diplom berish asosida xalqaro tasnif darajasini rivojlantirish ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining tahlili jarayonida xorijiy va mahalliy darajada amalga oshirilgan tadqiqotlar, xalqaro

tashkilotlar rasmiy manbalaridan foydalanilganligi, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovasiyalar vazirligi hamda Statistika agentligi rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi hamda tegishli takliflarning vakolatli tashkilot tomonidan amaliyatga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta'lif tizimini xalqaro tasnif bo'yicha rivojlantirishda innovatsion ta'lif menejmentini joriy etish va ularni rivojlantirishga qaratilgan maxsus, mustaqil ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy-uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan oliy ta'lif tizimini xalqaro darajada rivojlantirish davlat muassasalarini moliyalashtirishda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishni joriy etish va ularni isloh etishga oid strategiya, qonunchilik hujjatlarini yaratish, oliy ta'lif muassasalarida o'quv dasturini ishlab chiqish va uning amaliy bazasini mustahkamlash mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonda oliy ta'lif muassasalarining xalqaro tasnifini rivojlantirishda innovatsion ta'lif menejmentini tashkil etish yo'nalishlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

oliy ta'lif muassasasini xalqaro tasnif bo'yicha rivojlantirishda notijorat xususiyatini asosiy omilga aylantirish orqali innovatsion ta'lif menejmentini qo'llash taklifi 2024-yil 9-sentabragi O'RQ-957-sonli "Ma'muriy islohotlar doirasida ta'lif sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi munoasabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunning 20-moddasi 1-va 2-bandlari – "Ta'lif to'g'risida"gi qonunning 3- va 9-moddalariga kiritilgan o'zgarishlarni shakllantirishda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 11-noyabrdagi 01/q-08-69-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalar uchun davlat grantini ijtimoiy-rag'batlantiruvchi grant va ta'lif granti shaklida ajratishga imkoniyat yaratilgan;

oliy ta'lif muassasalari talabalarining yosh va jins kesimida reyting ballarini tahlil qilish asosida talabalarning shaxsiy ta'lif traektoriyasini boshqarish samaradorligini oshirish taklifi 2024-yil 9-sentabragi O'RQ-957-sonli "Ma'muriy islohotlar doirasida ta'lif sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi munoasabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunning 20-moddasi 9-bandiga – "Ta'lif to'g'risida"gi qonunning 34-moddasiga kiritilgan o'zgarishlarni shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 11-noyabrdagi 01/q-08-69-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalar uchun davlat grantini ijtimoiy-rag'batlantiruvchi grant va ta'lif granti shaklida ajratishga imkoniyat yaratilgan. Natijada erkak (51,4 foiz) va ayol (48,6 foiz) talabalarning a'lo baholarga o'qiydiganlari soni oshgan;

oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari o‘quv mashg‘ulotlarida yangi texnologiyalardan foydalanishlari, loqayd talabaga tashqaridan ta’sir etishni rivojlantirish orqali ta’lim sifatini miqdoriy oshirish yuzasidan taklif amaliyotda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligining 2024-yil 15-avgustdaggi 4/17-4/4-14134-sonli ma’lumotnomasi). Natijada oliy ta’lim muassasalarining xalqaro tasnifini rivojlantirishda innovatsion ta’lim menejmentini samarali tashkil etishga xizmat qilgan;

moliyaviy menejment samaradorligiga erishish maqsadida turdosh ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalarining mutaxassislik va tanlov fanlari bo‘yicha kesishgan holati bo‘yicha ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish orqali quyidan-yuqoriga akademik mustaqillikni yanada mustahkamlash taklifi amaliyotda qo‘llangan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligining 2024-yil 15-avgustdaggi 4/17-4/4-14134-sonli ma’lumotnomasi). Natijada oliy ta’lim muassasalarining xalqaro tasnifini rivojlantirishda innovatsion ta’lim menejmentini samarali tashkil etishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 4 ta ma’ruza tezislari nashr etilgan.

**Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsyaning hajmi 124 betni tashkil etadi.

## XULOSA

Dissertasion tadqiqotni amalga oshirish natijasida quyidagi ilmiy xulosa va takliflarni ishlab chiqishga muvaffaq bo‘lindi:

1. Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlarni an’anaviy ta’lim menejmenti foniga nisbatan farqli ravishda shakllantirishda quyidagi jihatlarni e’tiborga olish maqsadga muvofiq:

ilmiy tadqiqotlarni fanlararo integrasiyon konsepsiya asoslangan mavzularda olib borilishini rag‘batlantirish;

xalqaro ilmiy bazalarda tan olinishi nuqtayi nazaridan yangi bilimlarni ifoda etuvchi ilg‘or tadqiqot obyektlarida tadqiqotlar olib borish;

hamkorlikda tadqiqotlar olib borishni yakka tarzda tadqiqotlar olib borishga nisbatan manfaatliroq darajada rivojlantirish;

oliy ta’lim muassasalarining nomi bilan maqola chiqarish hamda o‘z universiteti nomi bilan chiqarilgan ilmiy ishlardagi g‘oyalarni davom ettirish va ularga havola bergen holda xalqaro tadqiqotlarni olib borishni rag‘batlantirish;

ilmiy tadqiqotlar natijalarini ta’lim oluvchilarga yetkazib berish uchun ilmiy natijalar konveyeri yaratilishga e’tibor qaratish;

imiy tadqiqotlar olib borishning o‘quv mashg‘ulotlari olib borishdan alohida holda bo‘lishini nazarda tutish. Bunda profssor-o‘qituvchilar bilan mehnat shartnomasi tuzishda ilmiy yoki o‘quv yuklama nuqtayi nazaridan ajratgan holda rasmiylashtirishni joriy etish;

ilmiy tadqiqotlar olib borishda moliyaviy manfaatdorlik bilan birga, ijtimoiyma’naviy qoniqish hosil qilish mexanizmlarini joriy etish.

Oliy ta’lim muassasasini xalqaro tasnif bo‘yicha rivojlantirishda notijorat xususiyatini asosiy omilga aylantirish orqali innovatsion ta’lim menejmentini qo‘llash taklif etilgan.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining yosh va jins kesimida reyting ballarini tahlil qilish asosida talabalarning shaxsiy ta’lim traektoriyasini boshqarish samaradorligini oshirish asoslangan.

Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari o‘quv mashg‘ulotlarida yangi texnologiyalardan foydalanishi, loqayd talabaga tashqaridan ta’sir etishni rivojlantirish orqali ta’lim sifatini miqdoriy oshirish yuzasidan taklif etilgan.

Moliyaviy menejment samaradorligiga erishish maqsadida turdosh ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalarinig mutaxassislik va tanlov fanlari bo‘yicha kesishgan holati bo‘yicha ishlab chiqshni yo‘lga qo‘yish orqali quyidan yuqoriga akademik mustaqillikni yanada mustahkamlash asoslangan.

Oliy ta’lim muassasalarining reytingi va imiji kategoriyalarini ajratgan holda innovatsion ta’lim strategiyasini ishlab chiqishda foydalanish tavsiya etilgan.

Ilmiy tadqiqot ishlarini o‘quv jarayonlaridan ajratish orqali universitetning ilmiy salohiyati va ilmiy nashrlari sonini oshirishga erishish taklif etilgan.

Oliy ta’lim muassasalarida hamkor universitetlar bilan ikki tomonlama akademik tan olinishni joriy etish orqali ikki tomonlama diplom berish asosida xalqaro tasnif darajasini rivojlantirish asoslangan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-60-son qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-81-son farmoni.
5. Aithal, P. S., & Aithal, S. (2019). Building world-class universities: Some insights & predictions. *Building World-Class Universities: Some Insights & Predictions*. International Journal of Management, Technology, and Social Sciences (IJMTS), 4(2), 13-35.
6. Aula, H. M., & Tienari, J. (2011). Becoming “world-class”? Reputation-building in a university merger. *Critical perspectives on international business*, 7(1), 7-29.
7. Brasco, C. (2014). Friendship formation at Yale University: An evaluation of the residential college system.
8. Byun, K., Jon, J. E., & Kim, D. (2013). Quest for building world-class universities in South Korea: Outcomes and consequences. *Higher Education*, 65, 645-659.
9. Choy, S. C., & Cheah, P. K. (2009). Teacher perceptions of critical thinking among students and its influence on higher education. *International Journal of teaching and learning in Higher Education*, 20(2), 198-206.

10. De los Rios-Carmenado, I., Sastre-Merino, S., Lantada, A. D., Garcia-Martin, J., Nole, P., & Perez-Martinez, J. E. (2021). Building world class universities through innovative teaching governance. *Studies in Educational Evaluation*, 70, 101031.
11. Estimated number of universities worldwide as of July 2023, by country  
<https://www.statista.com/statistics/918403/number-of-universities-worldwide-by-country/>
12. Ferguson, P. (2011). Student perceptions of quality feedback in teacher education. *Assessment & evaluation in higher education*, 36(1), 51-62.
13. Fleming, P. (2021). The ghost university: Academe from the ruins. *Emancipations: A Journal of Critical Social Analysis*.
14. Grewal, R., Dearden, J. A., & Llilien, G. L. (2008). The university rankings game: Modeling the competition among universities for ranking. *The American Statistician*, 62(3), 232-237.
15. Han, S., & Jung, A. (2013). Analysis of Korean University reputation ranking based on key reputation rank factors of the US best research university. *Int J Educ Res*, 1(11), 1-12.
16. Higher Education Market Size & Trends.  
<https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/higher-education-market>
17. Holcombe, A. N., Cheatham, E. E., Gideonse, H. D., & Sabine, G. H. (1937). Academic Freedom and Tenure: Yale University. *Bulletin of the American Association of University Professors (1915-1955)*, 23(5), 353-382.
18. <https://stat.edu.uz/>
19. <https://www.webometrics.info/en/Methodology>
20. Leader of Prestigious Yale Program Resigns, Citing Donor Pressure  
<https://www.nytimes.com/2021/09/30/arts/yale-grand-strategy-resignation.html>
21. Leckey, J., & Neill, N. (2001). Quantifying quality: the importance of student feedback. *Quality in Higher Education*, 7(1), 19-32.
22. Lee, J. (2013). Creating world-class universities: Implications for developing countries. *Prospects*, 43, 233-249.

23. Leydesdorff, L., Wagner, C. S., & Zhang, L. (2021). Are university rankings statistically significant? A comparison among Chinese universities and with the USA. *Journal of data and information science*, 6(2), 67-95.
24. Nelson, A.R. Ranking university innovation: a critical history. *Entrep Educ* 1, 1–10 (2018). <https://doi.org/10.1007/s41959-018-0002-y>
25. Nguen, T. V. S., & Laws, K. (2019). Changes in higher education teachers' perceptions of curriculum. *Journal of Applied Research in Higher Education*, 11(1), 76-89.
26. Sadullayev D. Innovatsion menejment asosida oliv ta'lim muassasalarida boshqaruv xodimlarini tayyorlashning shart-sharoitlari//Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – S. 20-27.
27. Salmi, J. (2016). Excellence initiatives to create world-class universities: Do they work. *Higher Education Evaluation and Development*, 10(1), 1-29.
28. Sanchez, J. J. C., & Alemán, E. C. (2011). Teachers' opinion survey on the use of ICT tools to support attendance-based teaching. *Computers & Education*, 56(3), 911-915.
29. Schwerkendiek, D. (2015). Recent changes in World University Rankings: an explorative study of Korea and Germany. *Asia Europe Journal*, 13, 361-377.
30. Shin, J.C., Toutkoushian, R.K. (2011). The Past, Present, and Future of University Rankings. In: Shin, J., Toutkoushian, R., Teichler, U. (eds) University Rankings. The Changing Academy – The Changing Academic Profession in International Comparative Perspective, vol 3. Springer, Dordrecht. [https://doi.org/10.1007/978-94-007-1116-7\\_1](https://doi.org/10.1007/978-94-007-1116-7_1)
31. State of the World's Youth. <https://www.un.org/en/global-issues/youth>
32. Stergiou KI, Tsikliras AC (2014) Global university reputation and rankings: insights from culturomics. *Ethics Sci Environ Polit* 13:193-202. <https://doi.org/10.3354/esep00140>

33. Stergiou KI, Tsikliras AC (2014) Global university reputation and rankings: insights from culturomics. *Ethics Sci Environ Polit* 13:193-202. <https://doi.org/10.3354/esep00140>
34. The Times Higher Education World University Rankings 2024. <https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/2024/world-ranking>
35. Usher, A. (2016). A short global history of rankings. In *Global rankings and the geopolitics of higher education* (pp. 47-77). Routledge.
36. Wang, Q., Cheng, Y., & Liu, N. C. (2012). Building world-class universities: Different approaches to a shared goal. In *Building World-Class Universities* (pp. 1-10). Brill.
37. Wilbers, S., Brankovic, J. The emergence of university rankings: a historical-sociological account. *High Educ* 86, 733–750 (2023). <https://doi.org/10.1007/s10734-021-00776-7>
38. Yale expands efforts to protect scholars at risk, February 7, 2023. <https://news.yale.edu/2023/02/07/yale-expands-efforts-protect-scholars-risk>
39. Yale's unwavering commitment to academic freedom, October 1, 2021 <https://salovey.yale.edu/writings-and-speeches/statements/yales-unwavering-commitment-academic-freedom>
40. Abdullayev J.A. Oliy ta'lim tizimida davlat-xususiy sherikligi mexanizmi rivojlanishini boshqarish: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDTU, 2023. – 77 b.
41. Abdullayev Z., Temirov A. Ilmiy innovatsion faoliyat samaradorligi va oliy talim muassasalar reytingi //Development issues of innovative economy in the agricultural sector. – 2021. – S. 499.
42. Ablakulova M., Xudayberganova N. Xalqaro standartlar hamda sifat menejmenti tizimini rivojlantirish bosqichlari //Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 2/С. – С. 63-71.
43. Adizov B.I. Innovatsion rivojlanish sharoitida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini oshirish (Buxoro viloyati misolida): i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2022. – 60 b.

44. Alikariyeva A. N. Oliy ta’lim muassasalarida sifat menejmenti tizimini modellashtirish masalalari //Журнал социальных исследований. – 2022. – Т. 5. – №. 2.
45. Babadjanov F. K. Oliy ta’lim muassasasining reytingi va imiji munosabati //Вестник КГУ им. Бердаха. №. – 2019. – Т. 3. – С. 55.
46. Begaliyeva M. A. Oliy ta’lim: o‘zgaruvchan mehnat bozori talablari asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalalari //Conference on the role and importance of science in the modern world. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 78-81.
47. G‘afurova Sh. Oliy ta’lim sohasida sifat menejmenti va uning xususiyatlari//Iqtisodiyot va ta’lim. – 2024. – Т. 25. – №. 1. – С. 274-281.
48. Djamil S., Frumin I. D. Российские вузы в конкуренции университетов мирового класса //Вопросы образования. – 2007. – №. 3. – С. 5-45.
49. Djumaniyazov U. O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilashda oliy ta’lim tizimining roli //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 150-154.
50. Jurayev Y. D. Oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqurlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2017. – №. 5. – С. 29-35.
51. Zufarova N.G. Oliy ta’limda brend kapitali boshqaruvini takomillashtirish: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – Т.: TDIU, 2022. – 58 б.
52. Ibrohimov F., Baxromova I. O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarining xalqaro reytinglarda ishtirok etish istiqbollari //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – Т. 1. – №. 30.
53. Ismailov T. Oliy ta’lim boshqaruvida akademik mustaqillik prinsiplari va amaliyot //Глобальное партнерство как условие и гарантия стабильного развития. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 61-63.
54. Yo‘ldoshev N.Q., Akbarxodjayeva Z.Z. Innovatsion menejment.–Т.: «Iqtisodiyot», 2019. –321bet

55. Nabihev D., Erkayeva G. Oliy ta’limda boshqaruv faoliyati mustaqilligining dolzARB masalalari //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2021. – №. 6. – S. 193-199.

56. Nishonov D.SH. Oliy ta’lim raqobatbardoshligini oshirishning marketing strategiyalari: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2022. – 60 b.

57. Raxmonov D.A. Innovatsiya: mohiyati va uni moliyalashtirish asoslari// “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2019 yil. –Manba: <http://interfinance.tfi.uz/?p=957>

58. Raxmonov N.R. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosida oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish: i.f.d. ... avtoreferat. – T.: O‘zMU, 2019. – 84 b.

59. Saidova X. Ta’lim tizimi boshqaruvida sifat va samaradorlik modellari//Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/S. – S. 42-49.

60. Saloxitdinov Sh. F., Kuzmina S. N. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim xizmatlari sifatini baholash //Экономика и социум. – 2024. – №. 1 (116). – S. 1283-1286.

61. Sa’dullayeva G.S. Oliy ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning marketing strategiyasi: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2020. – 68 b.

62. Tashxodjayev M. Oliy ta’lim muassasalari reytingi va uning moliyaviy boshqaruvga ta’siri //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – S. 264-272.

63. Teshabayev T.Z. Oliy ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish: i.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2019. – 83 b.

64. Torkunov A. V. Создание университетов мирового уровня: новые тенденции в российском высшем образовании //Вестник МГИМО Университета. – 2013. – №. 2 (29). – S. 7-11.

65. Xamidova A.A. Ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (oliy ta’lim muassasalari misolida): i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – S.: SamDU, 2022. – 61 b.

66. Xolmatov B., Xalildinov A. Iqticodeyotni raqamlashtirishda innovatsiyalar//Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – 2021. – S. 296.
67. Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Y. Menejment. -T., 2001 . - O‘qituvchi nashriyoti. Darslik. 706 b.
68. Elmurodov E. O‘zbekistonda oliy ta’lim sohasidagi akademik erkinlikni ta’minlashning o‘ziga xos jihatlari //Наука и технология в современном мире. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – S. 52-54.